“MAORIF VA O‘QITG‘UCHI” JURNALIDA FE’L TURKUMIGA OID MASALALAR TAHLILI

Nazira Gulmanovna Yangibaeva
nazirayangibayeva73@gmail.com
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada XX asrning 20 - yillarida “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalidagi tilshunoslik masalalari tahlil qilingan. Ayniqsa, fe’l so‘z turkumi to‘g‘risida muhokama yuritiladi. Bu so‘z turkumining grammatik kategoriyalari, funktsional shakllari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: fe’l, zamon, mayl, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, masdar, sig‘a

AN ANALYSIS OF ISSUES PERTAINING TO THE VERB CATEGORY IN THE MAORIF VA O‘QITGUCHI JOURNAL

Nazira Gulmanovna Yangibaeva
nazirayangibayeva73@gmail.com
Karakalpak State University

Abstract: The article analyzes linguistic issues addressed in the Maorif va O‘qitg‘uchi journal during the 1920s. In particular, it discusses the category of the verb. It provides an exposition of the grammatical categories and functional forms of this word class.

Keywords: verb, tense, mood, participle, adverbial participle, verbal noun, infinitive, valency

Barcha davrlarda ham tilshunoslik masalalari dolzarb bo‘lib kelgan. XX asrning 20-yillarida “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida bir qancha olimlarimiz tomonidan tilshunoslikka doir maqolalar chop etilgan. Jurnalda alifbo masalasi, imlo va grammatika masalalari ham tahliliy maqolalarda aks ettirilgan. Fe’l to‘g‘risida “Yangi o‘zbek alifbosi imlo qoidalari” (1926, sentyabr)da qayd qilingan. Maqolada fe’lga ta’rif berilmaydi, balki uning zamon, mayl, funksional shakllari sanab o‘tiladi va ular sig‘a termini bilan umumlashtiriladi “Sig‘a” termini 20-yillar tilshunosligiga oid ishlarda ko‘rinmaydi, lekin “Chig‘atoy gurungi” ning “Bitim yo‘llari” da atfo (افطع) sig‘asi birikmasida uchraydi [1;25.] va fe’lning 8ta sig‘asi belgilanadi.

Albatta, sig‘alarga ajratish printsiplari tilga olinmaydi.

(cc) BY

O‘tgan zamon fe’llari. U *“moziy sig‘asi”* deb nomlangan. Uning ta’rifi berilmaydi, lekin uning 2 semantik guruhi tuslanishi keltiriladi:

1) aniq o‘tgan zamon (moziyi shahdi): keldim, keldiṇ, keldi, keldik, keldiṇiz, keldilar va uning qalin varianti;

2) o‘tgan zamon eshitilganlik fe’li (moziyi naqli): uning ham ikki turi beriladi a) kelmizmən, kelmizsən, kelmiz va boshqa; hamda b) kelibmən, kelibsən, kelibdir va boshqa. Shu shaklni eshitilganlik ma’nosi hozirgi adabiyotlarda ham qayd qilinadi.

Ko‘rinadiki, bu maqolada o‘tgan zamon fe’llarining - di, - mish, - ib affiksli turlarigina e’tiborda bo‘lgan.

Hozirgi zamon fe’llari. U “hozirgi zamon sig‘asi» deb yuritiladi va uning ham 2 semantik turi tuslanishi keltiriladi:

a) hozirgi - kelasi zamon shakli (“Hozirgi - kelasi sig‘a” deyilgan) va keləmən va boshqalar;

b) hozirgi zamon davom fe’li (“davomiy sig‘a” deyilgan): kelməkdəmən va boshqa. Demak, hozirgi zamon fe’llarining asosiy shakllari ko‘rsatilgan.

Kelasi zamon fe’llari. U “kelgusi zamon sig‘asi” deb yuritilgan va uning ham 2 ma’no turi ko‘rsatilgan:

a) kelasi zamon gumon fe’li. U ehtimoli muzore termini bilan yuritilgan: kelərmən va boshqa hamda ayrim adabiyotlarda tarixiy o‘tgan zamon fe’li deb yuritilayotgan.[1] kelgymdir, kelgyṇdir (“u”-old qator unlini bildirgan) tuslanishli fe’llarni keltiradi va bandi muzore’ termini bilan yuritiladi.

Kelasi zamon fe’llari ichki turlarining arabcha nomlanishi ham muayyan an’anaga ko‘radir. XX asr boshida Muhammadamin ibn Muhammad Karimxojaning “Turkcha qoida” asarida kelasi zamon fe’llari muzore’ termini bilan berilgan edi [2;149]. Shuni alohida ta’kidlash joizki, maqolada kelasi zamon deb atab kelinayotgan fe’l shakli kelgusi zamon deb yuritilmoqda. Bunga alohida ahamiyat berilishi zarur deb hisoblaymiz. Bizning nazarimizda hozir qo‘llanib kelinayotgan termin o‘zbek tili uchun norma emasligini ta’kidlagan bo‘lar edik. Chunki hozirgi o‘zbek tilida kelasi so‘zi faqat kelasi yili birikmasidagina qo‘llanadi, kelgusi so‘zining esa qo‘llanish doirasi kengroq.

Fe’l mayllari. Bunday termin bu maqolada uchramaydi, umuman, mayl tushunchasi yo‘q, lekin amr sig‘asi (buyruq shakli) sarlavhasi (termini) ostida buyruq - istak mayl tuslanishi keltiriladi: *keləj(in), kel(iṇ), kelsin; keləjlik, keliṇiz, kelsinlar* va boshqa. Bu tuslanishda qavs ichida I shaxs birlikda -in, II shaxs birlikda -ing affiksining berilishiga ahamiyat qaratilishi o‘rinli bo‘ladi. Demak, maqola mualliflari shu shakllarda ikki variantlilikni ko‘zda tutganlar.

Maqolada tilak sig‘asi termini bilan - gəj//oqaj affiksli shaklning tuslanishini keltiradilar hamda kelgəjmən, kelgəjsən, kelgəj, kelgəjmiz, kelgəjsiz, kelgəjlər: Ma’lumki, bunday shakl hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanmaydi, faqat nutqqa tarixiylik

(cc) BY

(rasmiylik) ruhini beruvchi ayrim uslublardagina qo‘llanadi. Bu shakl tarixiy shakl bo‘lib, G‘.Abduraxmanov va A.Rustamov bu shaklni kelasi zamon fe’lini hamda istak bildirishini ta’kidlaydilar. Sh.Shukurov esa uning kelasi zamon ma’nosi bilan birga, odatdagi harakat, harakat bajarilishidagi taxmin, istak, iltimos, maslahat, maqsad, umid, buyruq va boshqa modal ma’nolarini keltiradi [3;114].

Q.Sodiqov to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelasi zamon fe’lini hosil qilishinigina aytadi[4;97].

Fe’lning funksional shakllari. Bunday shakllar “Hol sig‘asi” deb yuritiladi va uning 5 ta shakli keltiriladi. Shundan uchtasi ravishdoshga va ikkitasi sifatdoshga aloqadordir.

Ravishdoshning - в|ів|ьв; - gəc|ɑc|kəc|qac; - gəncə|ɑanca| - kəncə|qanca affiksi bilan; sifatdoshning: gən|ɑan|kən|qan hamda kelə turqan, qava turqan shaklli turlari keltirilgan. Ravishdoshning - ə|a|j affiksli shakli alohida keltiriladi va “sig‘a” deb yuritilmasa-da, sig‘alar qatorida turibdi hamda uning o‘zbekcha nomi emas, ruscha «Деепричастие» termini keltiriladi. Demak, maqola mualliflari uchun nazariy manba vazifasini rus tilshunosligi bajargan bo‘lishi mumkin, lekin ularda ravishdosh, sifatdosh terminlarini tarjima qilib olish uchun bilimlari yetarli bo‘lmaganligi ham sezilib turibdi, shu tufayli ham «деепричастие» termini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilingan.

Harakat nomi. U masdar termini bilan yuritilgan. Uning -mək/-maq, --yv/-uv, -z/-iz/-ьz(-sh/-ish/-ыsh), -məklik/-maqlьq affikslari bilan hosil qilinishi ko‘rsatilgan. Ma’lumki, aksariyat adabiyotlarda harakat nomining - moqlik affiksi bilan hosil qilinishi to‘g‘risida ma’lumot berilmaydi, lekin 20-yillar tilshunosligida bormoqlik, kelmaklik so‘zlari yasama ot deb qaralgan[5;19]. K.Meliev esa harakat nomining turkiy tillarda hosil qilinishi to‘g‘risida fikr yuritadi.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, 20-yillar o‘zbek tilshunosligida harakat nomi masdar termini bilan yuritilgan emas. Ma’lumki, bu termin aslida fors tilida so‘zning hozirgi zamon fe’l negizini anglatgan. “Masdar” termini umuman o‘sha davr turkiy xalqlari tillari bo‘yicha yozilgan mahalliy mualliflarning fors tili qo‘llanmalariga ergashib yozilgan asarlarida uchrab turadi. “Maorif va o‘qitg‘uchi” 1926 yil № 7-8 (41-46-betlar).

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, jurnalda morfologiyaga oid maxsus tadqiqotlar e’lon qilinmagan, lekin davrning muhim masalalaridan biri bo‘lgan imlo to‘g‘risida fikr yuritilar ekan, morfologiya haqidagi davr xususiyatlarini belgilash imkonini beradi hamda jurnal sahifalarida morfologik tushunchalar etimologiya, so‘z tomiri, so‘z o‘zagi, so‘z tubi, ismlar, sifat, ko‘makchilar, istifsor (yuklama), fe’l, sig‘a, masdar, qo‘shimcha, suffiks kabi terminlar vositasida berilgan. Demak, kuzatganingizdek, fe’l so‘z turkumiga doir materiallar juda kam berilgan. Lekin shunday bo‘lsada, mazkur jurnaldagi maqolalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida fe’l so‘z

(cc) BY

turkumini o‘rganishda zarur manba sifatida foydalaniladi. Ma’lumki, bu terminlarning aksariyati hozirgi o‘zbek tilshunosligida ham muvaffaqiyat bilan qo‘llanib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992, - Б.344.

2. Муҳаммадамин ибн Муҳаммад Каримхожа. Туркча қоида. - Тошкент: 1913 (тошбосма).//۱۹۱۳ - تاشكنت. تركچه قاعده. محمد امين ابن محمد كريمخواجه

3. Шукуров Ш. Наклонения и времена глагола в письменных памятниках узбекского языка в сравнительном освещении. АДД, -Ташкент, 1974. - С. 127-128.

4. Sodiqov.Q. Turkiy til tarixi, T., 2009. - B. 191.

5. Фитрат А. Сарф.- Самарқанд-Тошкент: Ўзбекистон Давлат нашриёти, 1927,-Б.19. Ўзбекча тил сабоқлиғи.- Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1926. - Б. 26.

(cc) BY